

**YOSHLARNING OLIY TA'LIM MUASSASALARINI
RAQAMLASHTIRISHDAGI O'RN*****Qurbonova Sevaraxon Solijon qizi****TDTrU Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi****Matkarimova Jamila Durdiyevna -TDTrU f.f.d.(DSc), v.b.professor***

Anatatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligi va uni oshirishga qaratilgan ishlar, oliy ta'lim muassasalarini raqamlashtirishga qaratilgan say harakatlar, oliy ta'limda raqamli boshqarish tizimining afzalliklari o'rganilgan. So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi asosida bir qancha yangi yondashuvlar va metodologiyalar yaratilish va ilmiy tadqiqotlarning adabiyotini tahlil qilish va ularning so'nggi yillarda olib borilgan ishlanmalarini ko'rib chiqamiz. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim olish, kasb-hunar egallash, ijtimoiy faollikni oshirish va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirish haqida ham aytib o'tilgan.

Abstract: This article examines the social activity of young people and the work aimed at increasing it, the efforts aimed at digitizing higher education institutions, the advantages of digital management systems in higher education. In recent years, based on the development of scientific research, a number of new approaches and methodologies have been created, and we will analyze the literature of scientific research and their developments in recent years. It is also mentioned that the Republic of Uzbekistan is implementing large-scale programs to support young people, provide them with education, acquire a profession, increase social activity and create economic opportunities.

Анатасия: В статье рассматриваются социальная активность молодежи и усилия по ее повышению, усилия по цифровизации высших учебных заведений, а также преимущества цифровой системы управления в высшем образовании. В последние годы на основе развития научных исследований было создано несколько новых подходов и методологий, и мы проанализируем научно-



исследовательскую литературу и рассмотрим их развитие за последние годы. Также было отмечено, что в Республике Узбекистан реализуются масштабные программы по поддержке молодежи, предоставлению ей образования, профессиональной подготовки, повышению социальной активности, созданию экономических возможностей.

Kalit so'zlari: *Yoshlar, o'quvchi, oliy ta'lim, raqamlashtirish, metodologiyalar, ta'lim, davlat dasturlari, "O'zbekiston- 2030" strategiyasi, 5 tashabbus.*

Keywords: *Youth, student, higher education, digitalization, methodologies, education, state programs, "Uzbekistan-2030" strategy, 5 initiatives.*

Ключевые слова: *Молодежь, студент, высшее образование, цифровизация, методы, образование, государственные программы, стратегия «Узбекистан-2030», 5 инициатив.*

O'zbekiston Respublikasi yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim olish, kasb-hunar egallash, ijtimoiy faollikni oshirish va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Yoshlarning rivojlanishi uchun yaratilib berilgan imkoniyatlar nafaqat ular uchun yangi ufqlarni ochib beradi, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 son Farmonida "O'zbekiston- 2030" Strategiyasida aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish to'g'risida me'yorlari ishlab chiqilgan[1].

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayonni mustaxkamlash to'g'risida 1-Bob 3-bandida keltirilganligi biz uchun eng maqsadga muvofiq o'qitishning asosiy negizi xisoblanadi. Hozirgi kunda jamiyatning har bir qatlamida, ayniqsa yoshlar orasida, katta o'zgarishlar va yangiliklar ko'zga tashlanmoqda. Yoshlar jamiyatni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib, ularning faoliyatlari butun dunyo miqyosida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir yosh



o'quvchi, tadbirkor yoki ijodkor, kelajakda jamiyatda o'zining o'rni va rolini topib, yangi g'oyalarni amalga oshirishga harakat qiladi. Bu jarayonlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Yoshlarni ta'lim olishi va ularga bilim berish jarayoni bugungi kunda eng muhim o'rinda turadi. Ularning sifatli ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilish, o'z bilimlarini rivojlantirishga imkon berish kerak. Ta'limda nafaqat akademik bilimlarni berilishi, balki yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalashi lozim. Shuning uchun davlat va jamiyat tashkilotlari, xususiylar sektor va ota-onalar yoshlarning ta'limiga katta e'tibor berishlari lozim. Bundan tashqari jamiyatimizda O'zbekistondagi xotin-qizlarni sog'lom turmush tarzini shakllantirish ularga ta'lim-tarbiya berish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, jamiyat rivojlanishining eng muhim ijtimoiy-siyosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Yoshlarning rivojlanishi uchun yaratilib berilgan imkoniyatlar nafaqat ular uchun yangi ufqlarni ochib beradi, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga ham katta hissa qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 son farmonida "O'zbekiston- 2030" strategiyasida aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish to'g'risida me'yorlari ishlab chiqilgan[2].

Yoshlar bu kelajakdagi jamiyatni tashkil etadigan kuchdir. Ular o'zlari yetishtirgan ilmiy yutuqlari, biznes yondashuvlari, ijodiy ishlari bilan jamiyatda o'z izlarini qoldiradilar. Yoshlarning roli nafaqat jamiyatni yaxshilash, balki uning rivojlanishdan iborat. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish va yangi g'oyalar bilan kelish yoshlar uchun imkoniyatlarni ochadi. Yoshlar kelajakda o'zgarishlarni amalga oshiradigan boshqaruvchilarga aylanadi, ular jamiyatni yuksaltirishda o'zlarining eng katta kuchlarini ishlatadilar. Yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish va ularning madaniy rivojlanishini ta'minlash uchun turli tadbirlar va ko'riklar o'tkazilmoqda. Yosh jamoalari o'rtasida do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar, sport musobaqalari, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilmoqda. Yoshlar uchun treninglar, seminarlar, biznes ta'limi kurslari tashkil etilib, ularning iqtisodiy imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Mamlakatimizda yuqori sifatli ta'lim olish uchun zamonaviy o'quv dasturlari, chet el universitetlarida o'qish imkoniyatlari, stipendiyalar, grantlar va boshqa imkoniyatlar yaratilgan [3]. Yoshlar



uchun innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishda ishtirok etish imkoniyatlari ochib berilmoqda. O'zbekiston yoshlarining ilmiy faoliyatga jalb etilishi, turli ilmiy loyihalarda ishtirok etishlari, ularning texnologiya sohasidagi o'qishlari va tadqiqotlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ta'lim sifatining oshishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini va jamiyatdagi muhim o'rinlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda yoshlarning faoliyatini faqat ilm-fan, texnologiya yoki san'at bilan bog'lamaslik kerak. Ularning ijtimoiy faolligi, ekologik muammolarga qarshi kurashi, sportdagi yutuqlari, hatto siyosatda faol ishtiroki ham kengayib bormoqda. Yoshlarning o'zini ifoda etish imkoniyatlari kengaygan sayin, ular jamiyatdagi o'zgarishlarga yanada ta'sir o'tkaza olishadi. Yoshlar faqat kelajakni yaratish bilan cheklanib qolmay, balki ayni paytda mavjud ijtimoiy masalalarga halqaro miqyosda qarash va muammolarga yechim topish uchun o'z bilim va salohiyatlarini ishga solishmoqda [4].

O'zbekistonda ushbu mavzu bo'yicha o'rganayotgan olimlar va tashkilotlardan, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi - oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonlarini o'rganish va tahlil qilish, shuningdek, yoshlarning bu jarayondagi ishtirokini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Yoshlar ishlari agentligi - yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish, ularning oliy ta'lim muassasalarini raqamlashtirishdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadqiqotlar va loyihalar amalga oshiradi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi - oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Oliy ta'lim muassasalaridagi olimlar va tadqiqotchilar - pedagogika, sotsiologiya, axborot texnologiyalari va boshqaruv sohalaridagi olimlar yoshlarning oliy ta'lim muassasalarini raqamlashtirishdagi o'rnini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishadi. Shuningdek, bu mavzu xalqaro miqyosda ham keng o'rganilmoqda. Xususan:

- UNESCO
- Jahon banki
- OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan raqamlashtirishning ta'limga ta'siri, yoshlarning raqamli savodxonligi va oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish



jarayonlarida yoshlarning ishtiroki bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda shu mavzuga oid ko'plab ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va tadqiqotlar chop etilgan [5].

Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlashda raqamli boshqarish tizimlari nafaqat ta'lim jarayonini boshqarishda, balki yoshlarning ijtimoiy va madaniy faoliyatini ham rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlar orasida jamiyatdagi o'zgarishlarga tez moslashish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va global mehnat bozoriga tayyorlashda raqamli texnologiyalar samarali vosita bo'ladi. Yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli ularning ta'lim olish jarayonida o'zini namoyon etadi. Raqamli tizimlar orqali ular turli ijtimoiy, madaniy va ilmiy tadbirlarda faol ishtirok etishlari, o'zlari uchun yangi imkoniyatlar yaratishlari mumkin. Masalan, raqamli platformalarda onlayn konferensiyalar, ilmiy tadqiqotlar, jamiyatdagi muhim masalalar bo'yicha forumlar tashkil etish, yoshlarni ko'proq ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga jalb qilish imkonini beradi [6]. Raqamli texnologiyalarni to'g'ri joriy etish orqali o'quv jarayoni yanada samarali, interaktiv va sifatli bo'lishi mumkin. Buning uchun esa har bir o'quv muassasasi raqamli boshqaruvni o'z faoliyatiga integratsiya qilishga tayyor bo'lishi zarur. Ilmiy tadqiqotlar sohasida amalga oshirilgan ishlanmalar va ular asosidagi ilmiy izlanishlar ta'limning turli jabhalarida, jumladan, texnologiyalar, iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar va boshqa ko'plab sohalarda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi, ilmiy ishlar va amaliy tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi va ularning amaliy qo'llanilishi yuqori darajada ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar va elektron resurslar yordamida talabalarning ilmiy izlanishlari osonlashdi. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga kerakli resurslar va metodologiyalar taqdim etiladi, bu esa ularning ilmiy ishlarini yanada sifatli va samarali qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar adabiyotini tahlil qilishda, ba'zan uning sifatiga ham e'tibor qaratish zarur [7]. Raqamli vositalar va internet orqali taqdim etilgan materiallarning ishonchliligi va haqiqatga mosligi hamda ularning ilmiy asosga ega ekanligi aniqlanishi kerak. Shu boisdan, ilmiy tadqiqotlar adabiyotining sifatini tahlil qilish ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar adabiyotini



tahlil qilish, ilm-fan rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Zamonaviy ilmiy izlanishlar nafaqat yangi bilimlarni kashf qilishni, balki yangi yondashuvlar va metodologiyalarni ishlab chiqishni ham taqozo etadi. Interdisipliner tadqiqotlar, raqamli texnologiyalar va amaliy tadbirlar sohasidagi innovatsiyalar ilmiy izlanishlar jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Oliy ta'limda ilmiy tadqiqotlar adabiyotini tahlil qilish jarayoni talabalarga o'z ilmiy ishlanmalarini amalga oshirishda va yangi bilimlarni yaratishda katta yordam beradi. Shuningdek, tadqiqotchilar uchun turli elektron ilmiy kutubxonalar va ma'lumotlar bazalari mavjud, bu esa o'z navbatida, ilmiy izlanishlarni tezlashtiradi. Tadqiqot natijalarining amaliy tadbiri - ilmiy tadqiqotlar faqat nazariy ishlanmalar bilan cheklanmasdan, amaliyotda ham qo'llanilishi kerak. Shu sababli, ilmiy tadqiqotlarning amaliy tatbiri sohasidagi natijalar ko'p jihatdan biznes va sanoat sohalarida qo'llanilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt, mashinani o'rganish, va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida turli muammolarni hal qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [8].

Qisqa so'z bilan aytsak jamiyatimizdagi yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar mavjud. Yoshlarning bilim, ma'naviyat, jismoniy salomatlik, kasb-hunar va ijtimoiy faollikda yuksalishi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Har bir yosh o'zining salohiyatini amalga oshirish orqali nafaqat o'z kelajagini, balki mamlakatning kelajagini ham yaratadi. Shu bilan birga, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga imkoniyat yaratish, ularning ijodkorlik va tashabbuskorliklarini rivojlantirish orqali O'zbekiston kelajagi yanada yorqin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. // 1-jild. Toshkent O'zbekiston.2017-y-591.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, 1-Bob 3-bandi.
3. Sh. K. Turaev. (2022). "Ilmiy tadqiqotlar va raqamli texnologiyalar: yangi yondashuvlar." Oliy ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 15(2), 115-127.
4. A. R. Rahmatov. (2023). "Ilmiy izlanishlar adabiyoti va uning amaliy qo'llanilishi." O'zbekiston ilm-fani va ta'limi, 34(4), 233-246.



5. J. X. Usmonov. (2021). "Interdisipliner tadqiqotlar va ularning ta'limdagi o'rni." Fanlararo aloqalar va integratsiya jurnali, 18(1), 58-64.
6. B. A. Saidov. (2020). "Raqamli texnologiyalar yordamida ilmiy tadqiqotlarni o'rganish." Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar, 5(1), 50-63.
7. Sultonov, Z. S. (2019). Ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslari va amaliyotda qo'llanilishi. Ta'lim va innovatsiyalar, 8(2), 67-80.
8. Xodjaev, D. O. (2021). Ilmiy metodologiya va tadqiqot usullari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.